



## TALABALARNI O'ZGARUVCHAN TA'LIM MUHITIGA ADEKVAT MOSLASHTIRISHNING AHAMIYATI

*Abdullayev S.A.*

*Termiz davlat pedagogika instituti  
Maktabgacha ta'lim nazariyasi o'qituvchi*

**Tayanch so'zlar:** ta'lim-tarbiya, talabalar, o'zgaruvchan ta'lim muhiti, moslashuv, ijtimoiy, psixologik, pedagogik.

**Ключевые слова:** образование, студенты, меняющаяся образовательная среда, адаптация, социальная, психологическая, педагогическая.

**Key words:** education, students, changing educational environment, adaptation, social, psychological, pedagogical.

Kirish. Ta'lim-tarbiya jarayonining ta'lim oluvchi yoshlarida bugungi kunga kelib, ijtimoiy faollikni oshirishda ta'lim beruvchi o'qituvchi va qabul qiladigan ta'lim oluvchilar munosabatlarini to'laligicha demokratlashtirish, erkinlashtirish o'qituvchining o'zidagi mavqeiga qarashni, ta'limning ichki shakli uning mazmuni hamda texnologiyalariga yangicha, innovatsion yondashuvlarning ketma-ketligini joriy qilishni, umuman olganda, ta'lim tizimi va davlat organlari hamkorligi asosida institutsional tizimni yaratishni taqozo etadi. Bunday belgilangan yangicha yondashuv, bugungi kun o'qituvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi izchil munosabatni tubdan o'zgartirishni to'laqonli talab etadi. Oliy o'quv yurti va ijtimoiy-madaniy muhitning ta'lim resurslarini integratsiyalash hamrohlik qiluvchi faoliyatining bosh yo'nalishi hisoblanadi va u keng ko'lamli ijtimoiy-psixologik-pedagogik ish usullari va shakllaridan kompleks ravishda foydalanishga imkon beradi. Talabaning o'quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilish jarayoni bir necha bosqichlarni qamrab oladi: 1-bosqich – propedevtik - tashxisiy. U pedagogik hamrohlikning barcha ishtirokchilari: hamrohlik qiluvchilarning ham, hamrohlik qilinayotganlarning ham moslashuv jarayoniga tayyorlanishi va kirishni anglatadi. Ushbu bosqichning davomiyligi 6-8 hafta. Ushbu bosqichda bosqichma-bosqich harakatlar algoritmi quyidagicha: birinchi kurs o'quv guruhlari o'qituvchilari va tyutorlarini tayyorlash, guruhlar



tyutorlari tomonidan bir yillik moslashuv dasturining ishlab chiqilishi, tyutorning talabalarning shaxsiy ishlari bilan tanishishi, o'quv guruhida talabalar bilan tanishishni tashkil etish, har bir guruh ishtirokchisining moslashuv salohiyatini aniqlash, talabalarning ushbu o'quv guruhida muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradigan omillarni aniqlash. 2-bosqich - konstruktiv o'zaro aloqa. U talabalarning o'qituvchilar va (tyutorlar sifatida ishtirok etuvchi) yuqori kurs talabalari rahbarligida guruh ichidagi munosabatlar tizimida o'zini o'zi amalga oshirishning turli xil variantlarini sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lgan ijtimoiy sinamalar maydonidir. Bosqich 6 oy davom etadi. Bosqichma-bosqich harakatlar algoritmi quyidagicha: tyutor tomonidan guruhda konstruktiv o'zaro aloqa usullarining mashq qilinishining tashkil etilishi, guruhda jamoani hosil qilish ustida muntazam ishlash, shaxsning turli guruhdagi shaxsiy xususiyatlari hamda uning kommunikativ salohiyatining namoyon bo'lishini talab qiladigan o'zaro aloqa vaziyatlarini yaratish, guruh ichidagi o'zaro aloqa natijalarini tahlil qilish, keyin algoritm takrorlanishi mumkin: ko'nikma va qobiliyatlarning yangi guruhlarining mashq qilinishini tashkil etish, xususan, talaba ushbu ko'nikmalarni namoyon etishi, o'z faoliyatini va guruhdagi muloqotini tahlil qilishi va qayta anglashi mumkin bo'lgan real vaziyatlarni yaratish. 3-bosqich – tahliliy faoliyat. Bunda talabaning guruhda moslashuvi natijalarini sarhisob qilish, mustaqil va ekspert baholash, ushbu yutuqlarni o'quv faoliyati natijalari bilan bog'lash, auditoriyadan tashqari faoliyatga qo'shilganligi, qiyinchiliklarni aniqlash, talaba va ushbu o'quv guruhi a'zosining keyingi rivojlanishining individual trayektoriyalarini ishlab chiqishni ko'zda tutiladi. Bosqich 4-6 hafta davom etadi. Bosqichma-bosqich harakatlar algoritmi - o'z-o'zini tahlil qilish, mikrogruphlarda tahlil qilish, umumguruhliy tahlil qilish va refleksiyalash (qayta anglash), tyutor bilan individual refleksiyaviy uchrashuvlar tashkil etish. Talabalarning o'quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilishning maqsadiga erishish uchun asosiy an'anaviy axborot berishning shakllari (ijtimoiy psixologik, pedagogik yordam, birgalikdagi faoliyatni tashkil etish), usullari (tarbiyalovchi vaziyatlar, dolzarblashtirish, mustahkamlash va boyitish, ko'maklashish va ijodni loyihalash) hamda keng ko'lamidan (individual va guruhli suhbatlar, munozaralar, jamoaviy-ijodiy ishlar, vaziyatli o'yinlar va boshqalar) foydalanilgan. Pedagogik hamrohlik modelini amalga oshirish doirasida 3-jadvalda keltirilgan interfaol adaptiv o'qitish usullaridan foydalanish taklif etiladi [85]. Moslashuv jarayonini amalga oshirish samarali bo'lishi uchun o'quv jarayonida murakkablashishiga qarab faol va interfaol mashg'ulot shakllaridan foydalaniladi: boshlang'ich daraja - me'yoriy-mantiqiy va kommunikativ; innovatsion loyihalar; hayotiy vaziyatlarni modellashtiruvchi usullarni qo'llash va amalga oshirish. O'yinli

usullar, murakkablikning nomlanishi, rolli o‘yin, ishbilarmonlik o‘yini, loyihaviy aloqalar texnologiyasi, talabning o‘quv guruhidagi ijtimoiy-psixologik ahvoli, talabning qiyinchiliklarni yengish, uning o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyati va tanlangan kasb haqidagi tasavvurlarni shakllantirish va rivojlantirish uchun salohiyatini kengaytiradi. Bo‘linmalarining strategik, taktik va tezkor monitoringi quyidagicha: - strategik monitoring talabalarni moslashtirish uchun shart-sharoitlarni o‘rganish, hamrohlikning maqsad va vazifalarini aniqlash imkonini beradigan tashxisiy vositalar majmuini o‘z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda strategik monitoring talabning o‘quv guruhida moslashuv jarayoniga ta‘sir qiluvchi, omillarni aprior tartiblash yordamida amalga oshirildi. - taktik monitoring talabalarning moslashganlik darajasi, ularning guruhdagi o‘zaro aloqaga yo‘nalganligi, asosan standartlashtirilgan test metodikalariga bo‘lgan ehtiyojni kuzatib borishga imkon beradigan tashxisiy vositalar majmui yordamida, shuningdek, o‘zgarishlar dinamikasini miqdoriy va sifatli kuzatib borishga imkon beradigan, talabalarning o‘zlashtirishini tahlil qilish orqali ta‘minlangan. Tezkor monitoring talabalarning o‘quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilish bosqichlarini o‘tish samaradorligini bosqichma-bosqich kuzatib borish funksiyasini bajargan. U asosan u yoki bu pedagogik ta‘sirlarning muvaffaqiyati/muvaffaqiyatsizligidan darak beradigan teskari aloqaga tezda ega bo‘lishga imkon beradigan ekspress-tashxislash usullarini o‘z ichiga olgan. Bunda kuzatuv, talabalar faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish, qisqa intervyular, refleksiv suhbatlar natijalari, ekspress-so‘rovlar, mustaqil kuzatuv kundaliklaridan foydalanish mumkin. Talabalarning o‘quv guruhida moslashuviga pedagogik hamrohlik qilish samaradorligi mezonlari etib quyidagi qoidalar belgilangan: - talabalarning ta‘lim jarayoni hamda auditoriyadan tashqari faoliyatdagi o‘quv va shaxsiy yutuqlari; - tanlangan kasb bo‘yicha oliy o‘quv yurtidagi ta‘lim jarayonidan qoniqish; guruhning shaxsiy idrokidagi “biz” ta‘rifida ifodalangan, o‘z o‘quv guruhiga nisbatan ijobiy munosabat; - hamrohlik jarayoniga uslubiy ta‘minlash; - talabalar tomonidan hamrohlikka bo‘lgan talab. Moslashuv jarayoniga muvaffaqiyatli hamrohlik qilish natijasi quyidagicha: - talaba yangi muhitda o‘zini tutish talablari, me‘yorlari va qoidalarini o‘zlashtiradi; - yangi ijtimoiy qurshov bilan muloqot qilishda psixologik qoniqishni boshdan kechiradi; - talabalarning boshqa talabalar va o‘qituvchilar bilan o‘zaro munosabatlari yo‘lga qo‘yiladi; - shaxs oliy o‘quv yurtidagi ijtimoiy munosabatlar tizimiga yo‘naltiriladi. Shu tariqa, talabalarning o‘quv guruhiga moslashuvida pedagogik hamrohlik qilish modeli o‘rganilayotgan jarayonning mohiyati va mazmunini yorqin namoyish etadi. Uning asosiy vazifasi talabning tashqi tomondan moslashganligini ekspert baholash emas, balki talabani oldida turgan moslashuv vazifalari, guruhdoshlari



bilan konstruktiv aloqalarni o'rnatish va saqlashda yuzaga keladigan muammolarni tushunishga rag'batlantirish hisoblanadi. Binobarin, hamrohlik - birinchidan, umumiy va yaxlit, qolaversa, har tomonlama faoliyat jarayoniga ko'maklashish va yordam berishning umumiy tizimi;

- ikkinchidan, integrative innovatsion texnologiya, uning tub asosi takomillashishi va o'z-o'zini rivojlantirish faoliyatini dolzarblashtirish, qolaversa, buni ochib berish uchun kerakli shart-sharoit yaratish va natijada alohida shaxsning o'zining asosiy funksiyalarini bajarishi; - uchinchidan, hamrohlik qiluvchilar va yordamga muhtoj bo'lganlar o'rtasidagi alohida munosabatlar jarayonidir. Birinchi kurs talabalarining o'quv guruhida o'zaro aloqalarini tashkil etishda trening ish shakllarini o'tkazish, guruhiy muhokama, refleksiv va tahliliy suhbatlar, tashxis o'tkazish, uning natijalarini tahlil qilish, ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi vazifalarni bajarish tavsiya etiladi: - birinchi kurs talabalarining umumiy madaniyati, hissiy barqarorligi, ichki olamining rivojlanishi, pedagogik faoliyatga ijobiy yo'nalganligi va o'ziga ishonchi, boshqa fikr va nuqtai nazarlarni qabul qilishda ochiqligini o'z ichiga olgan shaxsiy sifatlarini rivojlantirish; - pedagogik jarayonning maqsad va vazifalarini belgilay olish, shu jumladan, talabalarning o'ziga xos xususiyatlariga moslab shaxsga yo'nalgan pedagogik maqsad va vazifalarni belgilay olish;
- birinchi kurs talabalarining o'quv faoliyati motivatsiyasini shakllantirish
- ularda o'quv jarayoniga qiziqishni uyg'ota olish, o'quv vazifasini shaxsiy ahamiyatga ega vazifaga aylantira olish va birinchi kurs talabalarining o'qishdagi muvaffaqiyatlarini pedagogik jihatdan baholay olish; - mavzu sohasidagi axborot kompetentlikni internetning interfaol imkoniyatlari, shu jumladan, talabalar guruhi bilan virtual o'zaro aloqalarni tashkil etish uchun innovatsion axborot texnologiyalari yordamida rivojlantirish;
- shaxsiy pedagogik faoliyat dasturini ishlab chiqa olish va pedagogik qarorlarni qabul qila olish, shu jumladan, nostandart sharoitlarda harakat qila olish, faoliyatda ta'lim, tadqiqot va auditoriyadan tashqari faoliyat imkoniyatlarini integratsiyalash; - o'qituvchi va talaba o'rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlarni o'rnatishda kompetentlik, faoliyatda zamonaviy kommunikativ texnologiyalardan foydalanish. Ushbu jarayonga dasturiy-maqsadli yondashuvning tashkil etuvchisi hisoblanadigan, talabalarni o'quv guruhiga moslashtirishning maqsadli dasturining texnologik xaritasini taklif etiladi. Mazkur maqsadli dasturning texnologik xaritasi tyutorga jarayonni kompleks va tizimli ravishda qurishga imkon beradi. Maqsadli blokning vazifalari: - talabaning ta'sir obyekti pozitsiyasidan

guruh ichidagi munosabatlar subyekti pozitsiyasiga o'tishda pedagogik yondashuv jihatidan boshqarishni amalga oshirish; - birinchi kurs talabalarini tavsiya etilgan guruhiy faoliyat turlariga kiritish; - kursdoshlar bilan sheriklik, o'zaro munosabatlarga ko'maklashish va hamrohlik qilish. Ta'lim oluvchilarining hamkorlikdagi tahliliy faoliyati analitik mashqlar va muammoli topshiriqlarni bajarish jarayonida kafolatlangan natijaga erishish uchun o'qituvchi hamda talabalar orasida hamkorlik muhitini vujudga keltiradigan texnologiyalarni aniqlash va o'quv jarayoniga tadbiiq etish lozim. O'zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish natijasida talabalarda muayyan darajada amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilish mumkin. Pedagogik hamkorlikni vujudga keltiradigan texnologiyalarning asosiy negizini turli o'quv vaziyatlarida ta'lim oluvchilarning birgalikda, jadal harakat qilishlari uchun qulay sharoit yaratish imkoniyati tashkil qiladi. Ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatidagi hamkorligini rivojlantirishning texnologik jihatlari ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatidagi hamkorligini tashkil etishga yo'naltirilgan maxsus mashg'ulotlar vositasida ta'lim mazmunini boyitish, ta'lim jarayonida hamkorlikdagi o'qitish metodlaridan foydalanish, ta'lim oluvchilarda o'zaro bir-biri bilan hamkorlikda ishlash ehtiyojini shakllantirish muhim ahamiyatga molik sanaladi. Dunyoning aksariyat sivilizatsiyalashgan mamlakatlarida yoshlar mehnati nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishning etakchi tendentsiyalari ijtimoiy pedagogika rolining jadal o'sishini, bolalar va yoshlarning ijtimoiy ta'lim tizimini yangilash yo'llarini izlashni aks ettiradi. boshqa kasbiy, davlat-davlat ta'lim muassasalarini hayotdan, oiladan, ijtimoiy-madaniy muhitdan ajratish. Ta'limning ustuvor yo'nalishlari jamiyatdagi munosabatlar pedagogikasi, uning pedagogik yo'naltirilgan infratuzilmasini shakllantirish, oila va jamiyatning o'ziga xos imkoniyatlaridan, mikroijtimoiy muhitning madaniy, intellektual, kasbiy, ma'naviy imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga o'tmoqda. ta'lim va ta'lim maqsadlari uchun. Postsovet hududida yoshlar bilan ishlashning ijtimoiy-pedagogik an'analari ancha chuqur ildizlarga ega.

#### Adabiyotlar:

1. Qilichova M.X. Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun-mohiyati. / — Ta'lim tizimida fan, innovatsiya va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Jizzax. 325-bet. (2021)
2. F.Qodirova, SH.Toshpo'latova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2013
3. Parmonov B.E. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlari. -Science and Educationl Scientific Journal. 339-351-betlar. (2018)



4. S.A. Abdullayev Tabiat ob'ektlarini adekvat modellashtirish asosida o'quvchilarning ekodidaktik bilimlarini takomillashtirish. Educational Research in Universal Sciences.

#### **РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonining ta'lim oluvchi yoshlarida bugungi kunga kelib, ijtimoiy faollikni oshirishda ta'lim beruvchi o'qituvchi va qabul qiladigan ta'lim oluvchilar munosabatlarini to'raligicha demokratlashtirish, erkinlashtirish o'qituvchining o'zidagi mavqeiga qarashni, ta'limning ichki shakli uning mazmuni hamda texnologiyalariga yangicha, innovatsion yondashuvlarning ketma-ketligini joriy qilishni, umuman olganda, ta'lim tizimi va davlat organlari hamkorligi asosida institutsional tizimni yaratish yoritilgan.

#### **РЕЗЮМЕ**

В данной статье отношения между учителем и учеником полностью демократизируются и освобождаются позиции учителя в повышении социальной активности в образовательном процессе молодежи, видении внутренней формы обучения, внедрении. ряд новых, инновационных подходов к его содержанию и технологиям, в целом создание институциональной системы, основанной на сотрудничестве системы образования и государственных органов.

#### **SUMMARY**

In this article, to date, in the process of education and training, in order to increase the social activity of young people, it is necessary to fully democratize and liberate the relationship between the teacher and the student. the vision, the internal form of education, the introduction of a series of new, innovative approaches to its content and technologies, in general, the creation of an institutional system based on the cooperation of the educational system and state bodies.